

Umum ta'limdan oliy ta'limga qadam

✘ Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakultetiga biriktirilgan Toshkent shahar Sirg'ali tumani 304 - sonli umum ta'lim maktabi bilan hamkorlikda yoshlarni ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqlarini yanada oshirishga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Joriy yilning 17 may kuni Sirg'ali tumani 304 - sonli umum ta'lim maktabining 43 nafar ilmga chanqoq biritruvchi va faol o'quvchilari institutimizga tashrif buyurishdi va ularni institutimiz xayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishtirish hamda ularda oliy ta'lim muassasasida o'qib ilmlarini yanada oshirishga qiziqish uyg'otish maqsadida Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti dekani E.Farmonov va dekan o'rinbosarlari T.Raupov hamda I.Raximovlar rahnamoligida yoshlar uchun institut bo'ylab sayyohat uyushtirildi. Yoshlarni institutdagi mavjud imkoniyatlar va sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Ushbu o'tkazilgan tadbir natijasida yoshlarda ilm olishga bo'lgan ishtiyoqlari yanada oshirildi.